

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 4



IMFAKTOR
PAGES

April | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-4>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарров Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Филология фанлари

DAVLATOV Zoirjon Zokiraliyevich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7856582>

“TURK TILIDA OLMAK- BO‘LMOQ LEKSEMASINING MAVJUDLIK SEMASINI SHAKLLANTIRUVCHI FE’L VAZIFASINING TAHLILI XUSUSIDA”

ANNOTATSIYA

Olmak- bo'lmoq leksemasining mavjudlik semasini shakllantiruvchi fe'l vazifasining tahlili xususida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: olmak, leksema, sema, bosh ma'no, mustaqil ma'no, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so'z.

ANNOTATION

The concept of existence of the lexeme- olmak provides information about the analysis of the function of the formative verb.

Key words: olmak, lexeme, sema, main meaning, independent meaning, adverb, adjective, verb, modal word.

АННОТАЦИЯ

Понятие существования лексемы статья предоставляет информацию об анализе функции формообразующего глагола.

Ключевые слова: олмак, лексема, сема, основное значение, самостоятельное значение, наречие, прилагательное, глагол, модальное слово.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o'rganish, o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash o'z navbatida bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni etishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Turk tilining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari turk va xorijlik tilshunolar, jumladan, rus turkologlarning qator tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Bu yo'nalishda yaratilgan va nashr etilgan bir qancha monografiyalar, ilmiy ishlar mavjud [9, B.16].

Xususan, turk tili leksikologiyasi masalalari ham ayrim maxsus tadqiqotlarning o'rganish obyekti bo'lgan [8, B.19].

Quyida turk tilidagi **olmak** fe'lining semantik tahlilini ko'rib chiqamiz.

Turk tilidagi **olmak** fe'lining bosh semasi “**varlık kazanmak, meydana gelmek, vuku bulmak**” - “**Biror bir narsa (borliqqa) erishmoq, yuzaga kelmoq, ro'y bermok**” dir [10, B.3].

Masalan: *Dışarıda bir telaş oldu. Tashqarida bir to'polon bo'ldi.* Bu fe'l yakka o'zi ishlatilganida mustaqil ma'noni ifodalaydi: *Araya fitne sakanlar oldu (Y.K.K.). O'rtaga fitna solganlar ham bo'ldi.*

Bosh ma'nosida, ya'ni mustaqil ma'noda qo'llangan **olmak-bo'lmoq** fe'li gapda kesim vazifasini bajaradi hamda qo'shma fe'lining komponenti sifatida ishlatilmaydi. Masalan:

- *Yarin unvaninizla yukariya chiktiginiz zaman ne olur?*

- *Büsbütün başka birisi olacağım. Gene gülümsüyor. İnsan uzun süre kıyamıyor bu tatli sapığa. Bambaşka birisi olacaktı! Kolay sanki mahalle kızının bir yer değiştirmekle yüksek sosyete kadınına dönmesi ... (R.H.K.).*

- *Ertaga unvoningiz bilan yuqoriga ko'tarilganingizda nima bo'ladi?*

- *Butunlay boshqa bir insonga aylanaman (bo'laman).*

Yana kulimsirayapti. Odam bolasi bu shirin telbaga uzoq vaqt jahl qila olmaydi. Butunlay boshqa bir insonga aylanar ekan. Go'yoki ko'cha qizining joy almashtirishi orqali oliy tabaqali ayolga aylanishi osonday.

Olmak fe'li quyidagi so'z turkumlari ishtirokida kelishi, yordamchi fe'l vazifasini bajarishi va qo'shma fe'lni yuzaga keltirishi mumkin:

-**ot+olmak** fe'li: *İtiraf edeyim ki onunla konuşmamız ve ilişkimiz sadece bundan ibaret kaldı; dans bile nasip olmadı (R.H.K.). E'tirof etishim kerakki, u bilan suhbatimiz va aloqamiz faqat shundan iborat bo'lib qoldi, raqsga tushish ham nasib etmedi.*

Ravish+olmak fe'li:

Güzel kadınların az olmasından başka eksigimiz yok (R.H.K.). Go'zal ayyollarning kamligidan boshqa kamchiligimiz yo'q.

Sifatdosh+olmak fe'li: *Uyku dinlendirici olmaktan çok yıpratıcıdır: diri yatarsınız, ölü kalkarsınız (R.H.K.). Uyqu tin berishdan ko'ra vujudini charchatuvchudir; tirik uxlaysiz, chala o'lik holda uyg'onasiz. Başını tabağa eğimiş olduğu halde sevincimi gördüğüne eminim (R.H.K.). Boshini likopcha ustiga egib turgan bo'lishiga qaramay, quvonchimni ko'rganiga ishonchim komil.*

Harakat nomi + olmak fe'li: *İlk işim düşün altına girmek oldu (R.H.K.). İlk qilgan ishim dushga tushish bo'ldi.*

Modal so'z + olmak fe'li: *Bir külhanbeyi ağzıyla böyle barışmak mümkün olsa ferahlayacağım (R.H.K.). Bir bezorining gapı bilan yarastirish imkoni bo'lsa, tinchlanaman, ko'nglim joyiga tushadi.*

Olmosh + olmak fe'li: *Benim kim olduğumu bilen ancak sizsiniz, rastladığım ilk tanık, belki de yakınımınız (R.H.K.). Mening kim ekanligimni biluvchi yagona inson sizsiz, uchratgan ilk tanishim, balkida yaqinimsiz.*

Faktik materiallar tahlili **olmak** yordamchi fe'lining quyidagi ma'nolarda ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi:

O'rganilayotgan fe'l o'zi bog'lanib kelgan so'zdan anglashilgan ish-harakatning amalga oshirilishi yoki bajarilishi ma'nosini ifodalaydi.

Masalan: *İkinci üzeri Kızıldeniz ortasında aklınızdan memnun olmanız epeyce güçtür (R.H.K.). Asr paytida Qizildengiz o'rtasida aqlli ekanligingizdan xursand bo'lishingiz ancha mushkul. Kaçınıcı şarap kadehi bu? Sarhoş oluverir, kendini idare edemezse berbat! Nechanchi sharob qadahi bu? Sarxush bo'lib qolib, o'zini idora qila olmasa, barbod bo'ladi!* Ayni gaplarda ishtirok etgan **memnun olmak – xursand bo'lmoq, sarhoş olmak – sarxush bo'lmaq** birikuvlarida ishtirok etgan **olmak** fe'li harakat bajaruvchining mamnunlik, xursandchilik va sarxushlik, mastlik holatiga o'tgani ma'nosini anglatadi.

Olmak fe'li “yetishtirmoq, yetilmoq, o'stirmoq” ma'nolarni anglatishga xizmat qiladi: *Üzümler daha olmadı. Uzumlar hali yetilmadi (pishmadi). Ekinler oldu. Ekinlar yetildi.* Ushbu gapda sodda kesim vazifasini bajargan **olmak** fe'llari meva, sabzavot, ekin semali so'zlar bilan qo'llangani sababli qayd etilgan mazmunni hosil qilgan.

“Tayyorlanmoq”, “tayyor holga kelmoq” semasi **olmak** fe'lining kontekstga ko'ra yuzaga keluvchi ma'nosidir: *Çay oldu! Choy tayyor!* Demak, o'rganilyotgan fe'k leksema muayyan leksemalar vositasida “tayyor bo'lmoq”, “hozir bo'lmoq” ma'nolarini ifoda etishga xizmat qiladi.

Olmak fe'li “mavjud bo'lmoq”, “bor bo'lmoq” ma'nolarni anglatishga xizmat qiladi: *Eğer üzünde geniş etekli, kabarık sabahlığı olmasa yelpaze bu kadar hoş durmayacak (R.H.K.). Agar ustida keng etekli, kabarık matodan tikligan tonggi libos bo'lmasa, yelpig'ich bunday yarashmasdi. Bilmediği birşey olmasına şaşığımı sezince: -Kendimi zorlasam çat pat konuşurum ama istemiyorum. Dedi (R.H.K.). Bilmagan narsasi borligiga hayron qolganimni sezib: - O'zimni majburlasam, shart-shurt gaplashaveraman, ammo istamayman. “sabahlığı olmak” – “tonggi libosi bo'lmoq”, “birşey olmak”- “bir narsaning bo'lishi”* birikuvlari tarkibidagi **olmak** fe'li tobe komponentening ma'nosiga bevosita bog'liq ravishda “mavjudlik”, “borlik” yoki (agar inkor shaklda bo'lsa) “mavjud emaslik”, “yo'qlik” semalarini tashiydi.

Tahlil etilayotgan yordamchi fe'l “biron –bir joyga bormoq, joylashmoq” ma'nolarini bildirish imkoniga ega: *Nil orada olduğundan dolayı, tren yolculuğunu hep Seylon'ı düşünerek, gözümde canlandırarak tamamlamıştım (R.H.K.). Nil u yerda bo'lganligi sababli poezddagi sayohatimni faqat Seylon haqida hayol surib, o'sha yerdagi voqealarni ko'z o'ngimda jonlantirib yakunlagan edim, Keltirilgan misoldagi “orada” – “o'sha yerda” o'rin holi ishtirokida qo'llangan **olmak** leksemasi gapdan anglashilgan voqea –hodisaning ko'rsatilgan joyda ro'y berganligi ma'nosini ifodalagan.*

Olmak / bo'lmoq fe'li “mos tushmoq, mutanosib bo'lmoq” ma'nolarni ifoda etish mumkin. Quyidagi misolda **böyle**-bunday, shunday leksemasi bilan kelgan **olmak** fe'li so'zlovchining ma'lum bir holatga munosib ahvolda ekanligi semasini yuzaga chiqargan: *Benden şüphelendiğiniz aklıma gelince böyle oluveriyorum (R.H.K.). Mendan shubxalanganinigiz esimga tushsa, shunday ahvolga tushaveraman. Böyle olduğu içindir ki çekinmedin Musavva'ya indik (R.H.K.). Shunday bo'lgani uchundirki, uyalmasdan Musavvada paraxoddan tushdik.* Ayni gapdagi “böyle” – “bunday” ravish ishtirokida kelgan **olmak-bo'lmoq** fe'li esa ma'lum bir holatga, mos ahvolga, vaziyatga tushish semasini reallashtiradi.

Tadqiq etilayotgan yordamchi fe'l “biron narsaning birov mulki bo'lmoq, birovga tegishli bo'lmoq” ma'nolarini anglatishi mumkin: *Ona kimin nesi olduğunu niçin bu serüvene atıldığını sormuyorum (R.H.K.). Undan kimning nimasi ekanini, bu sarguzashtga nima sababdan bosh qo'shganini so'ramayapman.* Qayd etilgan sema **olmak** fe'li bilan kelgan leksemaning egalik kategoriyasi ko'rsatgichini olishi natijasida yuzaga chiqadi.

Vaqt, zamon ma'nosidagi so'zlar bilan qo'llangan **olmak** fe'li “yaqinlashmoq”, “boshlanmoq” semalarini ifodalaydi: *Sabah oldu. Tong otdi. Gece oluyor. Tun kiryapti. Akşam oluyor. Qosh qorayapti.* Bunda **olmak** fe'li o'zbek tilidagi “otmoq”, “kirmoq” fellarining ma'lum bir semalariga xos ma'noni ifodalaydi. Ayni sema **olmak** fe'lining o'zbek tilidagi muqobil **bo'lmoq** fe'liga xos emas.

Tadqiq etilyotgan yordamchi fe'l kontekstga ko'ra “biror belgiga, xususiyatga ega bo'lmoq, sohiblik” ma'nolarini bildirish mumkin: *Delişminliğine ve bana sürekli eziyet çektirmesine, hafif ve havai olmasına rağmen bu kızın o tarafı çok temiz (R.H.K.). Telbaligiga, menga muntazam aziyat chektirishiga, yengiltak va biroz havoyi bo'lishiga qaramay, bu qiz u tarafdanda juda pokdomon. Nil'e faydalı olusumun keyfi içinde neşem geri geldi (R.H.K.). Nilga foydali bo'lishim barobarida yana xursandligim qaytib keldi.* Demak, predmet belgisini bildiruvchi so'zlar -sifat leksemalar bilan qo'llangan **olmak** fe'li ayni belgi, xususiyatiga egalik semasini tashiydi.

O'rganilyotgan yordamchi fe'l keltirilgan gaplarda **hafif olmak – yengil(tak) bo'lmoq, havai olmak – havoiiy bo'lmoq, faydali olmak –foydali bo'lmoq** birikuvlari tarkibidagi sifatlarning semasiga bog'liq ravishda mazkur belgining mavjudligi, oidligi semasini yuzaga keltiradi.

Olmak fe'li umuman “biror narsaga, holatga, joyga egalik, sohiblik” ma'nosida ishlatilishi mumkin: *Bu gazete Hindistan'in en fazla tiraji olan yayın vasitalaridandır (R.H.K.). Bu gazeta Hindistonning eng ko'p tiraji bo'lgan nashr vositalaridandır.* Ushbu gapdagi tiraj –tiraj leksemasi bilan ishlatilgan olmak fe'li gapning egasi –gazetaning ma'lum bir holatga egaligi ma'nosini bildirgan.

O'rganilyotgan yordamchi fe'l bog'lanib kelgan so'ziga mutanosib ravishda “bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tmoq” ma'nosini bildirishi mumkin. Masalan, quyidagi gaplarda **haberdar – xabardor** so'zi ishtirokida kelgan **olmak-bo'lmoq** fe'li ma'lum bir muddat avval mavjud bo'lmagan holat, vaziyatning keyinchalik yuzaga kelganligi, ya'ni ilgari so'zlovchi xabarsiz bo'lgan bo'lsa, muayyan voqedan keyinchalik xabar topganligi ma'nosi anglashilgan: *Halifeye siz yazmıştınız, mektubunuzdan hepemiz haberdar olmuştuk. Xalifaga siz yozgandingiz, xatingizdan hammamız xabar topgan edik.*

Yoki keyingi gapda “toprak” - “tuproq” ning “altın”- “oltin” ga, “çakıl” – “shag'al” ning “zümrüt” – “zumrad” ga aylanishi ma'nosi olmak fe'li vositasida ifodalangan: *O yerler ki tutulan toprak bir anda altın, avuçlanan çakıl bir anda zümrüt olur (R.H.K.). Shunday yerlar borki, u yerda hovuchdagi tuproq bir onda oltin, shag'al bir onda zumradga aylanadi.*

Olmak fe'li kontekstga ko'ra “loyiq bo'lmoq”, “roppa-rosa kelmoq” ma'nolarini bildiradi: *Bu şapka başıma oluyor. Bu şapka boshimga to'g'ri kelyapti.* Qayd etilgan ma'no **olmak** fe'li kiyim –kechak, libos semali so'zlar ishtirokida kelganida yuzaga keladi.

“Yo'qotmoq”, “qo'ldan chiqarmoq” semalari ham o'rganilyotgan yordamchi fe'lning matn ichida reallashuvchi ma'nolaridan biridir: *Tembelliği yüzünden işinden oldu (R.H.K.). Dangasaligi uchun ishidan ajraldi.* Bu sema iboralar tarkibida ham ro'yobga chiqadi: canından olmak-joni chiqmoq, ekmeğinden olmak –so'zma-so'z: nonidan ajralmoq (ish joyidan ajralmoq).

İlk görüşte kendisini aşık olduğumu anlamıştır, anlamakta geçiken benim (R.H.K.). İlk ko'rishda unga oshiq bo'lganimni darrov tushungan, tushunishda kechikkan menman. Keltirilgan misollardagi “**hakim olmak**” – “**hokim bo'lmoq**”, “**milyarder olmak**” – “**milliarder bo'lmoq**”, “**aşık olmak**”, - “**oshiq bo'lmoq**” birikuvlaridagi otlarning semalri asosida, ushbu otlardan anglashilgan hol, ahvol, vaziyatda bo'lganlik ma'nosi anglashiladi.

Bu sema **olmak** fe'li leksemasi vositasida hosil bo'ladi.

Ma'lum so'zlar ishtirokida kelgan **olmak** leksemasi “yoshga to'lmoq, biron yoshga kirmoq” mazmunini tashiydi: *Beş alti yaşlarında idi; bugün hesabına göre yirmi bir yirmi ikisinde olacak (R.H.K.). Besh-olti yoshlarda edi, bugunning hisobiga ko'ra, yigirma bir yigirma ikkida bo'lishi kerak.*

Olmak fe'li “biror –bir darajaga, lavozimga, unvonga erishmoq” ma'nosini anglatishi mumkin: *Assubay olduğu için başka yere binemezdi, gidemezdi de ... (R. H. K). Unter –ofitser bo'lgani uchun paraxodning boshqa bo'lmasiga joylasha olmasdi ham, keta olmasdi ham. Aklına eseni yapmasa bir Nevap melikesi olması mümkündür (R.H.K.). Xayoliga kelganini qilmasa, Navab malikasi ham bo'lishi mumkin.* Assubay –kichik zobit, melike –malika ot leksemalari bilan ishlatilgan **olmak** fe'li, ayni otlar ifodalangan daraja yoki unvonga sohiblik ma'nosini bildirgan.

Tadqiq etilayotgan yordamchi fe'l “muayyan guruh, yo'nalish, e'tiqod, tariqat va shu kabilarga xos bo'lmoq, oid, tegishli bo'lmoq” ma'nolarini bildirish imkoniga ega: *Müslüman olanlara Mihraca, Raca denilmez; unvanları 'Nevab' dir (R.H.K). Musulmon bo'lganlarga Mixroja, roja deyilmeydi, unvonlari “navob” dir.* Ushbu misoldagi **olmak** fe'li müslüman –musulmon so'zi ishtirokida kelib, islom diniga kirganlik, ayni dinga e'tiqod qo'yganlik ma'nosini anglatadi.

Olmak fe'li “biror joyda tug'ilgan, yashayotgan” semasiga ega bo'lishi mumkin: *Köyden, kasabadan olmayan düveni, dirgeni, nasıl bilebilir? Qishloqdan, shaharchadan bo'lmagan odam havoncha bilan omochni qayerdan*

biladi? Bu holda **olmak** fe'li o'rin –joy ma'nosini tashuvchi, chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlar bilan keladi.

O'rganilyotgan yordamchi fe'l “kasallikka chalinmoq, xastalanmoq” ma'nolarini ifodalashlari mumkin. Masalan: **tifo olmak** –tif bo'lmoq, **sarı olmak** –sariqqa chalinmoq, **verem olmak** –tuberkulez bo'lmoq. Keltirilgan birikuvlardan ayon bo'ladiki, **olmak** fe'lining qayd etilgan ma'no –xastalik, kasallik turlari ma'nosini ifodalovchi so'zlar bilan ishlatilganda, ro'yobga chiqadi.

Turk tilidagi **olmak** fe'lining leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

To'plangan faktik materiallar tahliliga ko'ra, qo'llanilish doirasi, ishlatilish chastotasiga ko'ra **olmak** fe'li turk tilidagi yordamchi fe'llarning eng faoli, degan xulosaga kelish mumkin.

Olmak yordamchi fe'li, faktik materiallar tahliliga ko'ra, o'ttizdan ortiq ma'nolarni ifoda etish mumkin. Ayni semalarning ma'lum qismi kontekstda hamda muayyan sintaktik qurshov orqali reallashadi.

Olmak fe'lining –**miş**, –**acak**, –**makta**, –**r** / –**maz** shaklli sifatdoshlar bilan faol qo'llanilishi mumkin. Bunday xolat boshqa yordamchi fe'llarga xos emas. Ayni paytda, yordamchi fe'l vazifasida ishlatiluvchi **bulunmak** fe'li ham ba'zi sifatdosh shakllari bilam kelishi mumkin.

IQTIBOSLAR

1. Abduraxmonova M. O‘zbek va turk tillarida ot kategoriyalarining talqini: Filol fan. Nomz ... dis. Avtoref. T., 2004.- 26 b.
2. Айляров Ш.С. Развёрнутые члены предложения в современном турецком языке .-М.: Изд. МГУ, 1974. - 227 с.
3. Atabay N., Kutluk İ., Özel S. Sözcük Türleri. - Ankara: Ankara Üniversteti basımevi, 1976. S.
4. Atabay N., Özel S., Ayfer Ç. Türkiye Türkçesinin Sözdizimi. -İstanbul: Papatya, 2003. -142 s.
5. Banguoğlu T. Türkçenin grameri.-Ankara: Türk tarih kurumu basım evi, 1990.-630 s.
6. Karay R.H. Nilgün. - İstanbul:İnkılap, 1986.-754 s.
7. Karay R.H. Memleket hikayeleri. - İstanbul: İnkılap:19.-s.
8. Назарова Г.Лексикалогия турецкого языка-Т.: Тош ДШИ, 2001.
9. Самойлович А. Краткая учебная грамматика современного османско-турецкого языка. –Л.: Росс. гос. акад. типография,1925. -150 с.
10. Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004, -C,3.-S.2159.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-4

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz